

XATOTLIK SAN'ATI TARIXI VA TARAQQIYOTI

Rahmonaliyeva Mashhura Sherali qizi

Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi ilmiy xodimasi

Xattotlik sanati Sharq mamlakatlarida o'ziga xos alohida yo'nalish kasb etgan, maxsus ixtisos darajasiga ko'tarilgan qadimiy va beba ho sanatdir. Bu davrlarda yozuv va kitob kochirishga e'tiborning ortishi tufayli ajdodlarimiz tasarrufida bo'lган o'lkada «Buxoro xattotlik maktabi», «Xorazm xattotlik maktabi», «Farg'ona (Qo'qon) xattotlik maktabi», «Samarqand xattotlik maktabi», «Toshkent xattotlik maktabi» kabi bir necha yirik sanat markazlari vujudga keldi. "Ibn Sinoning «Tib qonunlari» kitoblarida takidlanishicha, xunuk xat bilan yozilgan matn kishining koziga katta zarar yetkazadi." Shuning uchun husnixat bilan yozilgan kitoblar nihoyatda qadrlangan, e'zozlangan hamda tabarruk sanalgan.

O'zbek xalqi uzoq asrlik tarixida yaratib qoldirgan madaniy me'rosida xattotlik san'ati alohida o'rinn egallaydi.

Arab istilosidan so'ng o'rta Osiyo xalqlari tomonidan islom dinining qabul qilinishi munosabati bilan arab yozuvi ham kirib keladi. O'rta asrlarda har qanday asar qo'lda ko'chirilib kitob qilingan. Nafis kitob ko'chirish katta hunar va san'at hisoblangan. Bu hunar egalari tarixda xattot nomi bilan mashhur bolganlar. Xattotlarning ko'chirgan kitoblari kishilarni hayajonga solib, ularni zavqlantirgan. Shuning ushun ham xattotlik bilan nom chiqargan shaxslar oddiy ko'chiruvchi emas, balki o'sha davrning ilm-ma'rifat va yirik madaniyat arbobi hisoblangan. Qo'lda ko'chirilgan har bir asar san'at mo'jizasi kabi nodir asar hisoblangan.

O'rta Osiyo ustalari, ayniqsa, Samarqand va Buxoro ustalari qog'oz ishlashda katta shuhrat qozongan edilar. Ularning qog'ozlari pishiq va silliq edi. Xattot uchun esa ana shunday sifatlari qog'ozlar kerak bo'lar edi. Qog'ozlar kustar holda turli usullarda tayorlangan.

Xattotning asar ko'chirish qurollari: "siyoh", "qamish qalam", "mistar" (transporant), qalamning uchini chiqarib turish uchun "qalamtarosh", qamish qalamning uchini kesish uchun yasalgan maxsus suyak plastinka "qalam qat" dan iborat bolgan. Qamish qalam xattotning asosiy yozuv quroli hisoblangan. Uni tayyorlash ham alohida san'at talab etgan. Qamish qalamdan qog'ozga siyoh tommaslik uchun hamda qalamda doim etarli darajada siyoh bo'lishi uchun siyohdon (dovot) ga tolguncha ipak los solingan. Siyohga bo'ktirilgan ipak loslar qalamning yetarli miqdorda siyoh bilan ta'minlanishiga yordam beradi.

Xattotlar texnik vazifalardan tashqari o'z yozuv uslublarini ham ishlab chiqarishga intilganlar. Masalan, XII asrdan boshlab xattotlar hayotida ko'fiy xati uslubi keng o'rinni oldi. Bu uslub asosida arab yozuvining quyidagi olti xil asosiy uslublari maydonga keladi:

1.Suls xati - bu xatning to'rt bahrsi tekis, ikki bahrsi yumaloq shakilda yoziladi.

2.Nasx xati - bu xatning ixtirochisi mashhur xattot Ibn Muqla' hisoblanadi.

Bu xat yuzaga chiqib, shuhrat qozongandan keyin boshqa xatlarning barchasi mansux, ya`ni ishlatishdan qoldirildi. Ilmiy adabiyot va qo`lyozmalarda ko`p uchraydigan g`ubor xati nasx xatining mayda qalamda yozilishidir. Matnlar raqamlarga o`xshab juda mayda qilib yozilgani uchun g`ubor deb aytilgan. G`ubor xatining ixtirochisi - Said Qosim.

3.Muhaqqaq xati - bir bo'lak qismi tekis bolib, qolgan bo'laklari yumaloq shaklida yoziladi.

Shuning uchun bu xatning ma`qaliy va ko`fiy xatlariga o`xshashligi boshqa xatlarga nisbatan ko`prokdir. Shu sababdan Ibn Muqla bu xatga muhaqqaq deb nom berdi. Boshqa turdag'i xatlardan birinchi deb bildi.

4.Rayhoniy xati - muhaqqaqdan kelib chiqqan bo'lib uning ixtirochisi Ibn Bavvobdir.

Rayhoniy xati - ko`fiydan kelib chiqqan. Bu nom xatning yozilishi shakl jihatidan rayhonga o`xshashligida. Ko`fiy va rayhoniy xatlarning ixtirochisi Ibn Bavvob (vaf.mil.1022y.) bo`lgan.

5.Tavqe xati - yarim tekis, yarim yumaloq chiziqdan tashkil topgan.

Ma`qaliy va ko`fiy xatlariga o`xshashligi bor. Tavqe deyilishiga sabab shuki, ilgari qozilar qozixona hujjatlarining boshiga yoziladigan so`zlarni shu xat bilan yozganlar. Qozilar va hokimlar hujjatlarni shu tavqe xati bilan imzolardilar. Idora va mahkamalarda farmonlarga, maktublarga, qo`lyozmalarga tavqe uslubida imzo qo`yilgan.

6.Riqa xati - ko`pchilik harflag bir-biriga qurama qilib yoziladi.

Riqa` xati - ko`pincha maktublar, kishilarga yuboriladigan xatlar shu xat bilan yozilgan. Ko`pchilik harflari bir-biriga qurama qilib yoziladi. Riqa` «ruq`a» so`zining ko`pligi bo`lib, qog`oz parcha, maktublar demaqkdir. Tavqe va riqa xatining ixtirochisi ma`lum emas.

Yuqorida ko`rsatib o'tilgan xatlarning har biri o'z o'mnida qo'llanilib kelingan. Muhaqqaq xatidan qasida va she'rlar yozishda, suls-ilmiy asarlar va xat yo'lyo'riqlarida, rayhoniy va nasx-qissa va xabarlarda, tavqe buyruq va farmonlarda, riqa xati maktublarda ishlatilgan. Undan tashqari, bu asosiy usulning har biri ingichka va yo'g'on qalamlarda yozilishi natijasida yana o'n ikki xil xatni tashkil qilgan. Shuning uchun ham eski maktablarda yozuv malakasini hamma o'quvchilar ham to'liq egallay olmaganlar. Yozishga qiynalishning yana bir sababi ko`p xarflarning so'zda qo'llanish o'rniga qarab har xil shakl olishidir.

XIV-XVI asrlarda bir qancha iste'dodli san'atkorlar nafis kitoblarning ijodchilari yetishdi. Muhammad bin Husayn at-Tibiy, Mir Ali Tabriziy, Xorazmiy, Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Qilqadam, Mimislар shular jumlasidandir. Bulardan tashqari, o'rta asrlarda yashagan bir qancha olim va fozil kishilar yoshlikdan xattotlik san'atini egallab, keyinchalik kotiblikda ham nom chiqarganlar. Ular faqat o'z asarlarinigina emas, balki boshqa mualliflarning asarlarini ham ko'chirganlar. Masalan Hofiz Sheroziy Xusrav Dexlaviyning "Xamsa"sinи ko'chirgan. Alisher Navoiyning mohir xattot ekanligi tarixiy

manbalardan ma'lum. Zahriddin Muhammad Bobur arab grafikasida turkiy xalqlarga moslab “Xatti Boburiy” deb atalgan alifbe yaratdi.

Markaziy Osiyoda xattotlik san'ati Temur va temuriylar davrida keng taraqqiy etdi. Husnixat san'ati dastlab Mavarounnahr poytaxti Hirotda rivojlanib, u yerda Sulton Ali Mashhadiy boshliq yirik xattotlik maktabi tashkil topdi. Maktabning o'ziga xos tomoni XIV asrda Mir Ali Tabriziy yaratgan nasta'liq xat uslubi bu yerda Sulton Ali tomonidan takomillashtirildi. Bu xat yirik va mayda nasta'liq kitobat ishlarida keng qo'llanib, badiiy va tarixiy asarlar faqat nasta'liq uslubida ko'chirila boshladi. Ko'fiy, riqo', suls va nasx xatlari esa ko'proq me'morchilik, naqqoshlik san'ati va Sharq qadimgi yozuvlarini o'rganishda ishlatildi. XVI asrda temuriylar sultanati inqirozga yuz tutgandan keyin, siyosiy hukmronlik Shayboniylar qo'liga o'tishi bilan madaniy hayot ma'lum darajada Buxoroda taraqqiy etdi. Bir qism hirotlik xattot, rassom va madaniyat arboblari Buxoroda to'plandi. U yerda Buxoroga xos bo'lgan yangicha kitobat va husnixat maktabi vujudga keldi. XVI—XVII asrlarda yashab ijod etgan Buxoro xattotlari husnixatda o'zlariga xos Buxoro xattotlik maktabini yaratdilar.

Markaziy Osiyoning eng qadimiy madaniyat o'chog'laridan bo'lmish Xorazmda xattotlik san'ati XVIII asr boshlaridangina mustaqil maktab sifatida shakllandi. Ayniqsa, XIX asrda Muhammad Rahim I (1806—1825) va Muhammad Rahim II (1844—1910) zamonida Xorazmda xattotlik san'ati keng taraqqiy etib, kitobat ishlari ham rivojlandi. Qo'qon ham husnixat san'atida o'ziga xos vakillarini yetkazib chiqardi. XVIII asr ikkinchi yarmi va XIX asrda Qo'qon xonligida madaniy hayot, san'at va adabiyot ancha ravnaq topgan. Qo'qonlik mashhur xattot Muhammad Sharif Dabir boshliq Farg'ona shaharlari juda ko'p xattotlar yetishib chiqqan. Hirot, Buxoro, Xiva xattotlik maktablaridagi kabi bu yerda ham nasta'liq xati yetakchi o'rinda bo'lgan. Markaziy Osiyo xattotlik maktablari orasida Qo'qon xattotlik maktabida nasta'liq bilan bir qatorda badiiy asarlarni ko'chirishda shikastiy xati ham keng qo'llanilgan. XIX asr ikkinchi yarmiga kelib, ma'lum iqtisodiy va siyosiy sabablarga ko'ra Toshkent ham ilm-fan va madaniyat markaziga aylana boshladi. Toshkentda maorif, san'at va

adabiyotning rivojlanishi bu yerda ham husnixat bilan shug‘ullanuvchi xattotlarning yetishib chiqishiga zamin tayyorlab berdi. Yuqorida sanab o‘tilgan husnixat maktablari jug‘rofiy tushuncha emas, balki XIV—XX asrlarda Xuroson va Markaziy Osiyo tarixining muhim iqtisodiy-siyosiy va madaniy taraqqiyot bosqichlari bilan aniqlangan. Bu maktablar orasida badiiy jihatdan yuksak taraqqiy bosqichiga ko‘tarilgani Hirot, Buxoro va qisman Qo‘qon husnixat maktablaridir. Shuni ham ta’kidlash kerakki, Xiva va Toshkentda husnixat taraqqiyoti XIX asr oxiridan toshbosma uchun kitoblar ko‘chirib berish bilan ham bog‘liq bo‘lgan. Xalqimizning ilm-fan va madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, xalqni ilm-ma’rifatdan bahramand qilishda va ma’naviy-ma’rifiy yodgorliklarning bizgacha yetib kelishiga ulkan hissa qo‘sishga sababchi bo‘lgan Markaziy Osiyo xattotlarining beqiyos xizmati har qancha hurmat va tahsinga sazovordir.

Respublikamiz mustaqilligi xalqimizning madaniy, ma’naviy taraqqiyotiga keng yo’l ochib bergen bugungi kunda madaniy merosimizni, uning asosiy kaliti bo‘lgan arab imlosiga asoslangan eski o’zbek yozuvini o’rganishimiz lozim. Zero, hozirgi zamon o’quvchilari ayniqsa, bo’lajak mutaxassislar o’z xalqi tarixini, tilini, yaxshi bilishi, idrok etishi uchun eski o’zbek yozuvini puxta egallagan bo’lishlari kerak. Xattotlik insoniyatning eng buyuk kashfiyotlaridan biridir. Inson dunyoga kelibdiki, fikirlash, ijod qilish, o’zida tug’ilgan qandaydir fikr, g’oya, yangilik va kashfiyotlarni boshqalarga yetkazish yoki qoldirish niyatida bo’ladi. Xattotlik fani tasviriy san’atning o’ziga xos turlaridan biri bo’lib, u milliy me’morchiligidir, xalq amaliy bezak san’atining barcha turlari, miniatyura, kitob grafikasi va boshqa san’atlar sohasidagi badiiy bezak shakl va usullari orasida o’z mazmun-mohiyatini aniq so’zlarni amaliy-badiiy shakllarda yozish orqali ifodalaydigan, ma’naviy-ma’rifiy jihatlardan eng ta’sirchan san’at turi hisoblanadi.

Yosh rassomlarning o’z ijodiy yo’nalishilarini topish bo'yicha izlanishlarida, ayniqsa, badiiy asarlarda va tarixiy obidalarda arab xatida badiiy kompozisiyalarni yuksak did bilan ishslash sohasidagi milliy-madaniy an’analarni

rivojlantirish, boyitish va yanada yuksaltirishda xattotlik fani alohida ahamiyat kasb etadi.Xattotlik san'ati sharq xalqlarining uzoq asrlik madaniy-tarixiy merosida alohida o'rinni egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Murodov A., O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan, T., 2001.
2. Rustamov A. KarimovX. Umarov Z. Forscha o'zbekcha o'quv lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
3. Ibrohim Aniys. Mu'jam vasit. – Qohira: Darul maorif, 1972.
4. Nojiy Zayniddin Musarrif. Ajaibu al-xotti al-arobiyy. – Bag_dod, 1968.
5. Komil Salmon Jaburiy.Mavsua al-xotti al-arobiyy – al-xott an-nasx. – Livan: Dar va maktaba al-hilal, 1999.